

**ISSN 2181-2764  
2025**



# **SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI**



# **ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**



# **ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE SULTANS IN FAKHRĪ HIRAVĪ'S TAZKIRA: POLITICAL ACTIVITY,  
CULTURAL LIFE, AND POETRY*****Oydin Sayfullayevna Tuychiyeva****Associate Professor, Department of Languages-1**Oriental university*[oydin\\_s@mail.ru](mailto:oydin_s@mail.ru)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Tazkira, Fakhrī Hirāwī, Rawzat al-Salāṭin, sultans' poetry, rulers of Iraq and Rum, manuscript copies, Shah Tahmasp, Sultan Uvais, Sultan Ahmad Baghdadi.

**Received:** 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

**Abstract:** This article analyzes Fakhrī Hirāwī's Rawzat al-Salāṭin tazkira as a literary and historical source. The study highlights the historical significance of the work, focusing on the creative legacies of the sultans and amirs mentioned, particularly their engagement with poetry. Various manuscript copies of the tazkira, their characteristics, and additional notes and materials inserted by scribes are also examined. Based on the fourth chapter – "On the Sultans of Iraq and Rum Who Occasionally Engaged in Poetry" – the article provides a detailed analysis of Sultan Uvais Ilkhoni, Shah Tahmasp, and Sultan Ahmad Baghdadi. Their political activities, artistic abilities, poetic fragments, and the literary environment of their era are examined from a scholarly perspective.

**FAXRIY HIRAVIYNING TAZKIRASIDA SULTONLAR: SIYOSIY FAOLIYAT,  
MADANIY HAYOT VA SHE'RIYAT*****Oydin Sayfullayevna Tuychiyeva****Tillar-1 kafedراسi dotsenti**Oriental universiteti*[oydin\\_s@mail.ru](mailto:oydin_s@mail.ru)*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Tazkira, Faxriy Hiraviy, Ravzat us-salotin, sultonlar she'riyati, Iroq va Rum hukmdorlari, qo'lyozma nusxalari, Shoh

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasida adabiy va tarixiy manba sifatida tahlil etiladi. Asarning tarixiy ahamiyati, unda keltirilgan

Tahmosp, Sulton Uvays, Sulton Ahmad Bag‘dodiy.

sulton va amirlarning ijodiy merosi, xususan, nazmga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Tazkiraning turli nusxalari, ularning xususiyatlari hamda xattotlar tomonidan kiritilgan qo‘shimcha izoh va materiallar o‘rganiladi. Maqolada to‘rtinchi bob – “Gohida nazm bilan shug‘ullangan Iroq va Rum sultonlari haqida”da kelgan ma‘lumotlar asosida Sulton Uvays Ilxoniy, Shoh Tahmosp va Sulton Ahmad Bag‘dodiy xususidagi eng muhim manbalar tahlil qilinadi. Ularning siyosiy faoliyati, badiiyati, she‘riy parchalari va davr adabiy muhiti bilan bog‘liq jihatlar ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

## СУЛТАНЫ В ТАЗКИРЕ ФАХРИ ХИРАВИ: ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ И ПОЭЗИЯ

*Ойдин Сайфуллаевна Туйчиева*

*Доцент, Кафедра Языков-1*

*Ориентального университета,*

[oydin\\_s@mail.ru](mailto:oydin_s@mail.ru)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** тазкира, Фахри Хирави, Равзат ас-салатин, поэзия султанов, правители Ирака и Рума, рукописные версии, Шах Тахмасп, Султан Увайс, Султан Ахмад Багдадский.

**Аннотация:** В данной статье анализируется тазкира Фахри Хирави «Равзат ас-салатин» как литературный и исторический источник. Рассматриваются историческая значимость произведения, творческое наследие султанов и амиров, упомянутых в тазкире, в частности их отношение к поэзии. Изучаются различные рукописные версии произведения, их особенности, а также дополнительные комментарии и материалы, внесённые переписчиками.

На основе сведений четвёртой главы — «О султанах Ирака и Рума, которые порой занимались поэзией» — проводится анализ важнейших источников, связанных с Султаном Увайсом Илхани, Шахом Тахмаспом и Султаном Ахмадом Багдадским. Освещаются их политическая деятельность, художественные способности, поэтические фрагменты и аспекты, связанные с литературной средой их эпохи.

**Kirish.** Adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini o‘rganishda tazkiralalar, manoqiblar va memuar asarlar muhim manba sifatida qadrlanadi. Ba’zan rasmiy tarixiy yozma manbalarda qayd

etilgan ayrim shaxslar, voqealar va badiiy-ma'naviy muhit haqidagi ma'lumotlar aynan tazkiralarda uchraydi. Shu jihatdan, ular nafaqat adabiy jarayonni, balki muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganish uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Faxriy Hiraviyning hijriy 957–958 (milodiy XVI asr o'rtalar) yillarda yozilgan "Ravzat us-salotin" tazkirasi Movarounnaxr, Eron va Hindistonning X—XV asrlarga oid ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini tadqiq etishda noyob manbadir. Asar yetti bobdan iborat bo'lib, 81 nafar sulton, amir va ijodkorlar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Uning qo'lyozma nusxalari jahonning turli kutubxonalarida saqlanib, xattotlar tomonidan kiritilgan izohlar, she'riy parchalar va qo'shimcha ma'lumotlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqolada tazkiraning to'rtinchi bobi – "Gohida nazm bilan shug'ullangan Iroq va Rum sultonlari haqida" – keltirilgan ma'lumotlar alohida tahlil etilib, unda tilga olingan bir nechta hukmdorlardan – Sulton Uvays Ilxoniy, Abumuzaffar Shoh Tahmosp va Sulton Ahmad Bag'dodiy – haqidagi manbalar, she'riy parchalar va ta'rixiy ma'lumotlar qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

**Asosiy qism.** Adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini o'rganishda tazkiralalar, manoqiblar va memuar asarlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ba'zan maxsus tarixiy asarlarda uchramaydigan ma'lumotlar tazkiralarda uchraydi. Bu asarlar ma'lum darajada davr ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda muxim ahamiyat kasb etadi.

Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasi adabiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, X-XV asrlarda Movarounnaxr, Eron, Hindistonning ijtimoiy-siyosiy tarixini, xususan, madaniy hayotiga oid bo'lgan hodisalarni, madaniyat va ilm-fanga bo'lgan e'tiborni tadqiq etishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Faxriy Hiraviyning ushbu asari hijriy 957-958 yillarning o'rtasida bitilgan bo'lib, u yetti bob va 81 nafar ijodkor sulton amirlar haqidagi ma'lumotlarni jamlagan. Tazkira orqali biz sultonlar amirlarni xalqni, hokimiyatni boshqarishda shafqatsiz yoki, aksincha, shafqatli bo'lganliklaridan tashqari, har birini adabiyotda, xususan, nazmda qalam tebratganliklarining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, qadimda xattotlar biror-bir asar qo'lyozmasini ko'chira turib, o'z fikr-mulohazalarini, qo'shimcha ma'lumotlarni sahifa hoshiyalariga ilova tarzida yozib ketgan. "Ravzat us-salotin" tazkirasining qo'lyozma nusxalarida ham bunday holatga duch kelamiz.

"Ravzat us-salotin" va "Javohir ul-ajoyib" tazkiralarning Sayid Hisomiddin Roshidiy tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matn so'z boshisida "Ravzat us-salotin" tazkirasi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Unga ko'ra hozirga qadar bu asarning beshta nusxasi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Parij nusxasi: (320 raqam) Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan bu nusxa eng qadimgi nusxa bo'lib, muallifning hayotlik chogida ko'chirilgan. Asar matni 32 varaq, (64 sahifa)dan iborat bo'lib, 4-sahifasidan 9-sahifagacha xattot tomonidan kiritilgan turli ma'lumotlar

va she'rlar berilgan. Ushbu ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, 1) mazkur nusxa bir muncha vaqt, xususan, shoh Tahmosb davrida Tabrizda saqlangan va unda o'sha davrning e'tiborli shoirlarining she'rlari berilgan. Shuningdek, ushbu nusxaga xattot tomonidan Suriyada muqim istiqomat qilgan Alxon taxallusli shoirning turk sultoni Sha'bon Afandini madh etib bitilgan qasidalari kiritilgan; 2) ushbu nusxa Txatada ham saqlangan, Abbosul Bastomiy hijriy 976 yilda bu kitobga bag'ishlab arabchada she'r bitgan, bu davrda muallifning o'zi Hindistonda bo'lgan.

2. Parij nusxasi; (321 raqam) bu nusxa ham Parij Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Tazkira matni 59 varaq (118 sahifa)dan iborat bo'lib, har bir sahifada 13 satr berilgan. Matn nasta'liq uslubida bitilgan. Bir necha turkiy va forsiy she'rlar, turli jumlar keltirilgan. Bu nusxa birinchi nusxaning aynan ko'chirmasi bo'lib, so'z va jumalarda hech qanday farq yo'k.

3. Berlin nusxasi: (644/134 raqam) bu nusxa Ikkinchi jahon urushidan avval Berlin kutubxonasida bo'lgan, hozirda Marburgda saklanyapti. Matni 33 varaq (66 sahifa)dan iborat. Boshidan 2 sahifa qo'shilgan, har saxifada 19-21 satr joylashtirilgan. Bu nusxa ham nasta'liq xatida ko'chirilgan.

4. Sankt-Peterburg nusxasi: (S-1573/2065 raqam) bu nusxa g'oyat nafis nasta'liqda bitilgan. Asardagi muqaddimasi hamda o'rtasidagi bir necha sahifa yo'qolgan. Matn ko'chirilgan sana, oxiridagi yozuvlar mavjud emas. Bu nusxa boshqa nusxalardan xattot tomonidan ko'plab ibora va she'rlar bilan boyitilganligi bilan farq qiladi. Xususan, Sulton Muhammad G'aznaviy xususida, Sulton G'iyosiddin va Hofiz kissalari, yangi ma'lumotlar va she'rlar xaddan ziyod ko'p berilgan.

5. Istanbul nusxasi: bu nusxa ilm dargohidagi mavjud bo'lgan to'plam tarkibida aniqlangan bo'lib, 4097 raqami ostida saqlanadi. To'p-lamning 267-sahifasidan 275-sahifasigacha mazkur tazkira o'rin olgan. To'plam tartib etilgan sanasi 1038 hijriy deb ko'rsatilgan.

Tazkiraning "Gohida nazm bilan shug'ullangan Iroq va Rum sultonlari haqida", deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida jami o'n ikkita sulton haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ularning har biri nafaqat davlat arbobi sifatida, balki nazm ahli sifatida ham tanilgan. Tazkirada quyidagi sultonlarning nomlari, kelib chiqishi va she'riy parchalari zikr etilgan:

| Nomi                   | Badiyati                        | Nomi                     | Badiyati                             |
|------------------------|---------------------------------|--------------------------|--------------------------------------|
| Shox Kermoniy Sho'jo   | bir g'azal matla' va bir ruboiy | Shoh Ismoil              | bir madh, bir matla' va bir muxammas |
| Sulton Uvays Ilxoniy   | bir ruboiy va bir she'r         | Abumuzaffar Shox Taxmosp | bir matla', bir ruboiy               |
| Sulton Ahmad Bag'dodiy | bir madh va bir matla'          | Abunasr Som Mirzo        | bir matla', bir ruboiy               |
| Sulton Yoqub           | bir ruboiy va bir g'azal        | Bahrom Mirzo             | ikki ruboiy                          |
| Jahon Mirzo Turkman    | bir bayt                        | Sulton Salim             | bir matla' va to'rt g'azal           |

|                  |            |                 |                            |
|------------------|------------|-----------------|----------------------------|
| Pir Badog‘ Mirzo | bir matla‘ | Sulton Sulaymon | to‘rt g‘azal va bir matla‘ |
|------------------|------------|-----------------|----------------------------|

Tazkirada zikr etilgan har bir sultonning hayoti va faoliyati o‘ziga xos tarixiy qimmatga ega. Biroq biz ular orasidan ayniqsa uch sulton haqidagi ma‘lumotlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Shayx Xasan Bo‘zurg ug‘li Sulton Uvays - tazkirada keltirilishicha, Sulton Uvays Ilxoniy (xijriy 738/776 yilda 38 yoshida vafot etgan), ajoyib musavvir bo‘lib, o‘sha davrning mashhur rassomi Xoja Abdulloh uning shogirdi bo‘lgan. Chiroyliligi sababli, Bag‘dod aholisi uning yo‘liga ko‘z tutishar edi. Musiqa bilan shug‘ullanardi. Uning saltanati Roy viloyatidan to Rum chegarasigacha yetgan. Nazmga juda qiziqqanligi sabab, Xoja Salmon Rushddan 6 kasbning sir-asrorlarini o‘rgangan. Shoh Sho‘jo‘ning *که جبه شاه محمود گفته است* ruboiysini eshitib, yoqtirib javob ruboiysini jo‘natgan:

ای شاه شجاع دولت و ملت و دین  
خود را بجهان وارث محمود مبین  
در روی زمین اگر چه باشی دو سه روز  
بالله که بهم در زیر زمین

Ya‘ni:

Ey davlatu, millatu dinga ega shoh Sho‘jo‘!  
O‘zingni dunyoda Mahmud vorisi deb bilma  
Agar yer yuzida bor-yo‘g‘i ikki-uch kun bo‘lsang ham,  
Alloh haqqi yer ostiga ham borasan.

Bu javob ruboiysidan so‘ng ular orasida kinoyaomuz gaplar o‘tgan. Ammo Sulton Uvays yoshligidayok foni dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilgan. Tarixdan ma‘lumki, Sulton Uvays o‘z silsilasining ulug‘i va mashhuri bo‘lgan. Shoir, naqqosh va musiqachi bo‘lgan mazkur zotning chiroyi va tashqi ko‘rinishi haqida ko‘plab tazkiralarda ma‘lumotlar keltirilgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, u jismoniy jihatdan kelishgan, kamolli va jamoli dilrabo edi. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy uning husn-jamoli haqida shunday yozadi: «U shunday go‘zal ediki, bir kuni ko‘chaga chiqqan chog‘ida Bog‘dod ahli uning yo‘liga chiqib, jamolidan lol qoldilar.»

Uning rasm chizish mahorati ham o‘ta yuksak bo‘lib, musavvirlar uning asarlaridan hayratda qolar edilar. “Ibrohim Sulton Uvays latifu hunarmand bo‘lgan, turli hunarlarni egallagan” kabi ma‘lumotlar keltirilgan shu bilan birga manbalarda uning husn-jamoli yuraklarni larzaga solar darajada tasvirlanadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, u qayerdan ot minib o‘tsa, zodagonlardan tortib oddiy xalqqacha hamma uning yuzini ko‘rish umidida boshlarini ko‘cha tomon chiqarar edilar.

Shu bilan birga, manbalarda uning sharobni ko‘p iste‘mol qilgani ham tilga olinadi.

Abumuzaffar shoh Taxmosp. Tarixda ma'lumki, shoh Ismoilning to'ng'ich farzandi va taxt vorisi — shoh Taxmosp hijriy 930 yildan 984 yilgacha, jami 54 yil davomida saltanatni boshqargan. "Ravzat us-salotin" tazkirasida qayd etilishicha, u o'ta adolatli hukmdor bo'lib, uning ulug'lik va insofi davrida barchaga ayon bo'lgan. O'sha zamondagi sultonlar orasida hech biri shoh Taxmosp kabi otaliq (himoyaga olish) bobida teng kela olmagan ta'kidlanadi.

U o'z jangarilari bilan ham yuksak mahoratga ega bo'lib, sharqdan g'arb-gacha bo'lgan mintaqalarni o'z qo'l ostiga olgan.

Shoh Taxmosp she'riyatni ham ardoqlagan, ahli qalam va ahli san'atga mehr qo'yib, ularga izzat-hurmat ko'rsatgan, sovg'a-salomlar berib rag'batlantirgani manbalarda e'tirof etilgan.

U zotning quyidagi mashhur matla'si ham tez-tez tilga olinadi:

از بهر قتل عاشق دل خسته چشم یار تیغی کشیده از مژه همچون زبان مار

Ya'ni:

Xasta yurak, oshiq qatli (o'limi) uchun, yorning ko'zi

Ilon tili kabi kiprigdan tortilgan tig'dekdir.

Sulton Ahmad Bog'dodiy (h. 784–813) Bag'doddan to Tabrizgacha hukmronlik qilgan hokimlardan bo'lib, Amir Temur bilan ham bir necha bor jang olib borgan. U ba'zan saltanatni qo'ldan boy berib, ba'zan uni qayta qo'lga kiritgan. 813 yilda esa Tabrizda Qaro Yusufning amri bilan qatl etilgan.

Faxriy Hiraviyning tazkirasida ta'kidlanishicha, Sulton Ahmad Bog'dodiy — Sulton Uvaysning o'g'li bo'lib, otasidan so'ng Bag'dodning Dorolsalomida taxtga o'tirgan va amirlikni akasi Sulton Husaynning tasarrufidan tortib olgan. Manbalarda uning qudrati Rumgacha yetib borgani, "Zafarnoma"da bu haqda maxsus izoh berilgani qayd etilgan.

Podshoh ko'p qirrali hunarmand bo'lib, arab va fors shoirlariga javoblar yozgan, naqqoshlikda esa unga teng keladigan hech kim bo'lmagan. She'riyatda, xususan shashqalam uslubida yaxshi ijod qilgan. Musiqada va dunyoviy ilmlarda ham shuhrat qozongani, ko'p mulozim va shogirdlarga ega bo'lgani ta'kidlanadi. Hazrat Hofiz ham uni madh etgan.

Biroq oxirida u mayga ruju' qo'yib, sog'lig'ini yo'qotgan va o'zini maishatga berib, yo'ldan adashgani manbalarda zikr etilgan. Amir Temur qo'shinlari bilan bo'lgan jangdan so'ng esa Yusuf Qaro Turkman qo'lida azoblantirilib o'ldirilgani haqida ma'lumot beriladi.

Tazkirada uning vasfi sifatida quyidagi matla' ham keltirilgan:

دلا کدایی و رندی از پادشاهی به

دمی فراغت خاطر از هر چه خواهی به

Ya'ni:

"Ey qalb, faqirlik va ma'nisiz hayot ham podshohlikdan yaxshiroq; Xotirjamlik va orom nafasi esa barcha narsadan afzal."

“Sahifat ul-axbor”da keltirilishicha, u tuproqda fol ochish va musiqa ilmlarida o‘ta mahoratli bo‘lgan. Hoji Abdulqodirni ustoz deb bilib, unga hurmat ko‘rsatgan. Biroq juda zolim bo‘lgani, hech kim uning qahridan qocha olmagan ham qayd etiladi. “Tarix ul-Jaloir”da esa, uning mayparastligi, ayollarga haddan tashqari moyilligi va vaqtini maishat bilan o‘tkazgani yoziladi. U xalqning kambag‘alligi yoki baxtsizligi bilan hech qachon qiziqmagan.

Sulton Ahmaddan devon ham meros qolgan. 337 sahifadan iborat ushbu devon №32; №35 raqamlar ostida Vashingtondagi Friyr galereyasida saqlanmoqda. Devonning bir nechta sahifasini Mister Martin 1946 yilda chop ettirgan.

**Natijalar va muhokamalar.** “Ravzat us-salotin” tazkirasining tahlili XVI asr Sharq adabiy-tarixiy muhitining o‘ta murakkab va serqirrali ko‘rinishini ochib berdi. Manbada sultonlar faqat siyosiy arbob sifatida emas, balki o‘z davri madaniy hayotining faol ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘ladi. Shoh Taxmospning adabiyot va san‘atga homiylik siyosati Safaviylar davrida madaniy rivojning muhim omillaridan biri sifatida ko‘riladi. Sulton Ahmad Bag‘dodiy misolida esa qudrat, mayl, shahvat va madaniy faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi, hukmdorning shaxsiy fazilatlari davlat boshqaruviga qay darajada ta’sir o‘tkazishi yaqqol aks etgan. Tazkirada keltirilgan she’riy parchalar hukmdorlarning ruhiy holati, estetik dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatini ko‘rsatuvchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

1. “Ravzat us-salotin” sultonlarning siyosiy faoliyati bilan birga ularning ijodiy, badiiy va madaniy qiyofasini ham yoritib beruvchi muhim manba ekani aniqlandi.

2. Shoh Taxmosp adolatparvar hukmdor va adabiyot, san‘at homiysi sifatida ta’riflanadi; bu esa Safaviylar davri madaniy yuksalishining asosiy omillaridan biri bo‘lgan.

3. Sulton Ahmad Bag‘dodiyning ko‘pqirrali iste’dodi — she’riyat, musiqa, naqqoshlikdagi mahorati uning davri madaniy muhitida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

4. Tazkiradagi ma’lumotlarni boshqa manbalar bilan chog‘ishtirib o‘rganish XVI asr tarixiy-adabiy jarayonlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

5. Ushbu manba XVI asr Sharq madaniy hayotini o‘rganishda ishonchli va qimmatli tadqiqot asosi ekani tasdiqlandi.

**Xulosa.** “Ravzat us-salotin” tazkisasi XVI asr manbashunosligida o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘lib, unda aks etgan tarixiy shaxslarning siyosiy faoliyati, adabiy qobiliyati va shaxsiy fazilatlari turli manbalar bilan uyg‘un holda beriladi. Tazkirada kelgan ma’lumotlar sultonlarning faqat davlat arbobi sifatida emas, balki nazm ahli, musiqashunos, naqqosh va ziyoli ziyoratchilar sifatida ham namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Sulton Uvays Ilxoniyning musavvirlik va she’riyatdagi mahorati, Shoh Tahmospning adolatparvarligi va adabiyotga homiyligi, Sulton Ahmad Bag‘dodiyning ko‘pqirrali iste’dodi

uning zamonasi madaniy muhitida muhim o‘rin tutadi. She‘riy parchalar esa ularning qalam sinovi, estetik dunyoqarashi va davr oynasidagi ichki kechinmalarini yoritib beradi.

Shu tariqa, mazkur tazkira nafaqat adabiy jarayonni, balki tarixiy shaxslarning madaniy dunyosi va ijodiy faoliyatini o‘rganishda ham qimmatli manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sayid Hisomiddin Roshidiy. “Ravzat us-salotin” va "Javoxir ul-ajoyib". Haydarobod, 1968.
2. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Samarqand: noshir noma‘lum, XVI asr.
3. Tarix ul-Jaloir. II tom, Tahrir etilgan nusxa, s. 121.
4. Zafarnoma. Tarixiy asar, Tahrir etilgan nusxa, s. 214.
5. Tuychiyeva Oydin. “Axtare tobon” tazkirasi: fors adabiyotida ayol shoiralarning o‘rni va abulqosim muhtaram shirvoniyning badiiy merosi  
<https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/4843/4446>
6. <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/4843/4446>
7. Tuychiyeva, O. (2023). Russian Native - Maga Rahmani: The First Female Writer of Afghanistan and Her Tadhkirats. Bulletin of Science and Practice, 9(4), 621-626. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/81>
8. Tuychiyeva O. S. On poetesses mentioned in the memoir “Ruze ravshan”  
By Muhammad muzaffar Hussein //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – T. 5. – №. 50. – C. 427-432. <https://doi.org/10.36713/epra4521>
9. Sayfullayevna T. O. The image of women in tazkirahs “Sham‘i anjuman”, “Sobhi gulshan” and “Nigoristoni sukhan”. <https://doi.org/10.5958/2249-7315.2022.00220>.
10. Tuychiyeva, O. (2025). Features of the use of the aorist in the Persian Language. Bulletin of Science and Practice, 11(1), 487-492. (In Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/110/57>
11. Sayfullaevna, Tuychieva Oydin. "The arrival of Baburi queens at tazkira's." <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-05-05-03>
12. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303021>.